

2-TOM, 6-SON

JINOIY AKTIVLARNING QAYTARILISHDA ULARNI BOSHQARISH
TIZIMLARINING AHAMIYATI VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Boynazarov Ibrat Xurmat o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

e-mail: i.x.boynazarov@gmail.com

ANNOTATSIYA.

Jinoiy aktivlarni muvaffaqiyatli qaytarilishida ularni samarali boshqarish tizimlarining qo'llanilishi dolzarb ahamiyatga ega. Xalqaro tajribada qaytarilgan aktivlarni mamlakat tizimi, takomillashgan mamlakat tizimi, avtonom fondlar va nodavlat tashkilotlar orqali boshqarish amaliyoti mavjud. Ushbu tezisda jinoiy aktivlarni qaytarishda mazkur boshqaruv tizimlarining ahamiyati va har bir tizimni qaytarilgan jinoiy aktivlarni boshqarishdagi samaradorligi xalqaro tajribalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *korrupsiya, jinoiy aktivlar, korrupsiyaga qarshi kurashish, aktivlarni boshqarish, jinoiy aktivlarni qaytarish, aktivlarni tasarruf qilish, xalqaro tajriba, alternativ boshqaruv tizimlari.*

АННОТАЦИЯ.

Использование эффективных систем управления имеет неотложное значение в успешном возвращении преступных активов. В международной практике существуют управления возвращенными активами через страновую систему, усовершенствованную страновую систему, автономные фонды и неправительственные организации. В данном тезисе анализируется важность этих систем управления в возвращении преступных активов и эффективность каждой системы в управлении возвращенными преступными активами на основе международного опыта.

Ключевые слова: *коррупция, преступные активы, борьба с коррупцией, управления активами, возврат преступных активов, распоряжение активами, международный опыт, альтернативные системы управления.*

ANNOTATION.

The use of effective management arrangements is essential in the successful recovery of criminal assets. International experience includes managing recovered assets through a country system, an improved country system, an autonomous funds and a non-governmental



2-TOM, 6-SON

organizations. This thesis analyzes the importance of these management systems in the recovery of criminal assets and the effectiveness of each system in managing recovered criminal assets based on the international experience.

Key words: *corruption, criminal assets, fight against corruption, asset management, criminal asset recovery, asset management, international experience, alternative management arrangements.*

Jinoiy aktivlarni qaytarish xalqaro maydonda korrupsiyaga qarshi kurashda davlatlar oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Aktivlarni musodara qilish va qaytarish orqali davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni bartaraf qilish mumkin bo'ladi, shuningdek qonuniylik va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplari ta'minlanishiga hissa qo'shiladi.

Xalqaro amaliyotda jinoiy aktivlarni qanday tashkilotga qaytarilishidan kelib chiqib ularni mamlakat tizimi yoki takomillashgan mamlakat tizimi orqali, avtonom fondlar yoki nodavlat tashkilotlar orqali boshqarish tizimlari mavjud [1]. Ushbu tizimlar aktivlarni muvaffaqiyatli qaytarilishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, hozirgi kunda aktivlarni qaytarayotgan davlat ularning samarali boshqarilishi va maqsadli sarflanishiga, noqoquniny o'zlashtirishlarni oldini oladigan tizimlarning mavjudligiga alohida e'tibor qaratadi. Bu borada rus olimi N.A Golovanova "jinoiy daromadlarga qarshi kurashish jarayonining asosiy jihati va ustuvor yo'nalishlaridan biri nafaqat bunday daromadlarni olib qo'yish (musodara qilish yo'li bilan) va davlatga qaytarish, balki ularni boshqarish va jamiyat manfaati yo'lida foydalanishdir" [2] – deya ta'kidlagani ham bejiz emas. Quyida qaytarilgan aktivlarni boshqarish tizimlaring turlariga va ularning xorijiy davlatlar tomonidan amaliyotda qo'llanilishiga to'xtalib o'tamiz.

Mamlakat tizimi. Ushbu tizim aktivlarni to'g'ridan-to'g'ri so'ragan mamlakatning markaziy budjetiga qaytarishni nazarda tutadi. Bunda aktivlarni boshqarilishi, shu jumladan tasarruf qilinishi ham mamlakat budjeti orqali amalga oshiriladi. Shuni qayd etish joziki, mazkur tizimning qo'llanilishi qaytarilgan mablag'larning tasarruf qilinishini, ya'ni sarflanishini monitoring qilish jarayonini murakkablashtiradi.

Xalqaro amaliyotda ushbu tizim orqali aktivlarning qaytarilishini "Abacha" keysida ko'rishimiz mumkin. Unda Shveysariya tomonidan Nigeriyaning markaziy budjetiga qaytarilgan 500 million dollardan ortiq mablag'lar qaytariladi. Ammo ushbu mablag'larning sarflanishida qator kamchiliklar aniqlangan. Masalan, ayrim holatlarda aktivlar qaytarilishidan oldin tugagan loyihalarga pul ajratilgan, bir qancha loyihalar rejadan ortda qolib ketgan yoki deyarli bekor qilingan, tugallangan loyihalarning ba'zilari sifatsiz bajarilgan, ba'zilari qurilish tugagandan so'ng ko'p o'tmay kapital ta'mirlashni talab qilgan.



2-TOM, 6-SON

Umumiy qilib aytganda, ushbu keysda budgetga qaytarilgan mablag'larni sarflanishini nazorat qilishda ham muammolar yuzaga kelgan [3].

Takomillashgan mamlakat tizimi. Bu tizim mablag'larni to'g'ridan-to'g'ri davlat budgetiga ayrim kafolatlar (shartlar) bilan qaytarishni o'z ichiga oladi. Bunday kafolatlarga xaridlar siyosatini qat'iylashtirish bo'yicha qonun hujjatlarini qabul qilish, milliy audit agentliklari bilan birgalikda audit o'tkazish uchun xususiy firmalar bilan shartnomalar tuzish va ma'lum shaffof hisoblar orqali mablag'larni yo'naltirish kabilar misol bo'lishi mumkin. Bunda qaytarilgan aktivlar hisobidan moliyalashtiriladigan alohida dastur va loyihalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar tajribasida mazkur tizimning qo'llanilishiga Shveysariya va Qozog'iston o'rtasidagi keys misol bo'ladi. Shveysariya hukumati tomonidan 2011-yilda pul yuvish bilan bog'liq tergovdan so'ng 48 million AQSh dollaridan ko'proq miqdordagi mablag'ni musodara qildi va Qozog'istonga ularni yoshlar siyosati va energiya samaradorligi sohalarida qozoq aholisiga foyda keltiruvchi loyihalarni moliyalashtirish uchun qaytarishga qaror qildi. 2012-yil dekabr oyida Shveysariya Taraqqiyot va hamkorlik agentligi Jahon banki bilan kelishuvga erishdi. Unga ko'ra, Jahon banki vositachilik qilish va mablag'larning qaytarilishini nazorat qilishi belgilandi. Agentlik tomonidan Jahon banki trast fondiga grant sifatida 48,8 million AQSh dollari miqdorida mablag o'tkazildi. Jahon banki bu pulni Qozog'istonga teng qismlarda energiya samaradorligi dasturi va yoshlarga oid dasturlarni moliyalashtirish uchun qaytardi. Shartnomada qaytarilgan aktivlar keyinchalik Qozog'iston hukumati tomonidan boshqarilishi va Jahon banki ishonchli vakil sifatida ishlashi belgilandi. Ammo ta'kidlash kerakki, aktivlarning bunday shartlarda qaytarilishi va tasarruf qilinishi qator tanqidlarga sabab bo'ldi. Misol uchun ushbu vaziyatda Shveysariya Taraqqiyot va hamkorlik agentligi va Jahon banki o'rtasidagi kelishuvning ochiq e'lon qilinmaganligi va aktivlarni qaytarish jarayonida shaffoflikning ta'minlanmagan kabi holatlar qayd etilgan [4].

Avtonom fondlar. Maxsus yoki avtonom fondlar davlat tomonidan bilan ma'lum bir maqsad va alohida boshqaruv tartibi asosida tashkil etiladi va odatda ma'muriy, huquqiy va moliyaviy avtonomiyaga ega bo'ladi. Bunda qaytarilgan mablag'larning boshqarilishini nazorat qilish uchun tashkil etilgan organ oldida hisobdorlikning huquqiy yo'nalishlarini yaratish mumkin bo'ladi. Ya'ni, hisobdorlik fond orqali yo'naltirilgan resurslarni boshqarish va ulardan foydalanishni nazorat qilish uchun tuzilgan organga yuklanadi. Bu vazifani bajaruvchi organ asosan davlat sektoridan jalb qilinishi mumkin, ammo kengashlar kengroq doiradagi manfaatdor tomonlarni, jumladan, resurslardan manfaatdor bo'lgan



2-TOM, 6-SON

sektorlar va nazorat va oshkoralikni ta'minlashga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan fuqarolik jamiyati tashkilotlarining vakillarini o'z ichiga olishi ham mumkin.

Shveysariyaning 2002-yilda Peruga 77,5 million AQSh dollariga yaqin miqdoridagi aktivlar qaytarishi bilan bog'liq "Montesinos" keysi avtonom fondlarga mablag'larni qaytarishga misol bo'ladi. Ushbu holatda Vladimiro Montesinos va bir qator Peru amaldorlari tomonidan turli jinoyatlar oqibatida kelib chiqqan aktivlar qaytarilgan. 2001-yilda davlatda qaytarilgan aktivlarni to'g'ri va shaffof boshqarishni ta'minlash maqsadida maxsus milliy fond (FEDADOI) tashkil etildi. Fondagi qaytarilgan mablag'lar budjet orqali o'tkazilayotgan bo'lsada, ularning taqsimlanishini Kongress emas, korrupsiyaga qarshi kurashda ishtirok etuvchi beshta davlat organi vakillaridan iborat FEDADOI kengashi belgilab berdi. Shunday qilib, ushbu vaziyatda qaytaruvchi davlat aktivlardan yakuniy foydalanishni aniqlash yoki monitoring qilishda ishtirok etishi haqidagi kelishuv tuzilmasdan, milliy monitoring tizimi qo'llanilishi, ya'ni monitoring Peru davlati tomonidan olib borilishiga kelishilgan. Oqibatda, ushbu holatda Peruga qaytarilgan mablag'larning shubhali taqsimotlari aniqlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, xarajatlar oldindan aniq belgilanmagan va mablag'larning bir qismi FEDADOI kengashi a'zo bo'lgan agentliklarning yillik moliyaviy budjetini to'ldirishga sarflangan. Pulning qolgan qismi esa politsiyachilarning dam olish tadbirlarini moliyalashtirishga sarflangan [5].

Nodavlat tashkilotlar. Mazkur tizim orqali aktivlarning qaytarilishi mablag'lar jamiyatning ma'lum bir guruhi yoki qatlamiga foyda keltirishi va imkon qadar shaffof tarzda taqsimlanishini ta'minlash uchun ularni bir yoki bir nechta nodavlat tashkilotlari orqali yo'naltirishda ifodalanadi. Bunday tashkilotlarni tashkil qilish aktivlar qaytarilishi borasida kelishuvda ham aks ettirilishi amaliyotda uchrab turadi.

Xorijiy amaliyotda Qozog'istonga Shveysariyadagi muzlatilgan aktivlarning qaytarilishi aynan nodavlat tashkilot orqali amalga oshirilganini ko'rish mumkin. Ushbu keylarda mablag'lar AQSh neft kompaniyasi tomonidan Qozog'iston amaldorlariga pora sifatida berilganligi gumon qilingan bo'lsada, keyinchalik o'sha mablag'lar saqlangan hisob raqamlar Qozog'iston amaldorlariga tegishli ekanligi aniqlangan [6]. 2007-yil may oyida Qozog'iston, Shveysariya va AQSh hukumatlari o'rtasida anglashuv to'g'risidagi uch tomonlama memorandum imzolandi va unda davlatlar 84 million AQSh dollar aktivlar, shuningdek olingan foizlar bilan hisoblaganda jami 115 million AQSh dollari Qozog'istonda tashkil etiladigan BOTA nodavlat tashkilotining jamg'armasiga qaytarilishiga kelishib olishdi [7]. Jahon banki mablag'larni sarflanishini monitoring qilish majburiyatlarini o'z zimmasiga oldi. Uning yakuniy hisobotiga ko'ra, jamg'arma faoliyati orqali kam ta'minlangan oilalar, yoshlar ijtimoiy va sog'liqni saqlash xizmatlari, hamda oliy



2-TOM, 6-SON

ta'lim subsidiyalaridan bahramand bo'ldi. Jamg'armaning olti yillik faoliyati davomida u 208 ming qozog'istonlikning yashash sharoitini sezilarli darajada yaxshilagan [8]. BOTA tashkilotining jamg'armasi orqali "shartli naqd pul o'tkazmalari", "o'qishga yordam", "ijtimoiy yordam" kabi dasturlar doirasida qaytarilgan mablag'lardan maqsadli foydalanishga erishildi.

Ammo, shuni ta'kidlash joizki, aktivlarni BOTA nodavlat tashkilotining jamg'armasiga qaytarilishidagi monitoring tizimini ba'zi ekspertlar va nodavlat tashkilotlari haddan tashqari byurokratik va qimmatga tushadigan jarayon deb topishdi. Hisobotlarga ko'ra, qaytarilgan 115 million AQSh dollarlik aktivlarning taxminan 79,1 million dollari Qozog'iston xalqiga grantlar ko'rinishida, 18,1 million dollari esa to'g'ridan-to'g'ri dasturlar orqali ajratilgan. Qolgan 18,5 million dollar yoki umumiy mablag'ning 15,6 foizi esa, operatsion va umumiy xarajatlarga sarflangan [9] (tashkilotning faoliyati, monitoring xarajatlari, yo'llanngan mutaxassislariga to'lov va boshqa xarajatlar qaytarilgan mablag'lar hisobidan qoplangan). Bundan kelib chiqadiki, jinoiy aktivlarni nodavlat tashkilotlar tuzish orqali qaytarish samarali, lekin xarajat talab qiladigan tizim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, aktivlarni davlat budjetiga qaytarish yoki uni tasarruf qilinishini monitoring qilishning milliy tizimini joriy etish tajribasi boshqa korrupsion xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi. Nodavlat tashkilotlar tuzish orqali mablag'larning qaytarilishi esa, ularni sarflanishining samarali hamda shaffof bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bu tizimning joriy etilishi nisbatan ko'proq xarajat talab qiladi.

Bizning fikrimizcha, jinoiy aktivlarni avtonom fondlarga yoki nodavlat tashkilotlarga qaytarish tizimlari – mablag'larni sarflanishini samarali monitoring qilinishi ta'minlangan taqdirda, qaytarilgan aktivlarni adolatli va shaffof boshqarishni tashkil etishda eng samarali tizimlar hisoblanadi. Jinoiy aktivlarni qaytarish va qaytarilgan aktivlarni boshqarish uchun eng maqbul tizimni tanlashda ma'muriy xarajatlar va ko'p bosqichli nazorat tartibining samaradorligi, xususan, shaffoflik, hisobdorlik va jamiyat manfaatining ustunligi kabi bir nechta jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Stolen Asset Recovery (StAR) Initiative's guide: Stolen Asset Recovery: Management of Returned Assets, Policy Considerations. Washington, DC: The World Bank, 2009 |
https://www.unodc.org/documents/corruption/Publications/StAR/StAR_Publication_-_ManagementReturnedAssets.pdf



2-TOM, 6-SON

2. Вопросы управления конфискованным имуществом - Голованова Наталья Александровна. Журнал российского права № 10 — 2016. | <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-upravleniya-konfiskovannym-imuschestvom>

3. Managing Proceeds of Asset Recovery: The Case of Nigeria, Peru, the Philippines and Kazakhstan (Cf. Ignacio Jimu) p.9 | https://www.unodc.org/documents/corruption/AddisEGM2017/Working_paper_Basel_Institute.pdf

4. Handbook For Asset Restitution Good Practices And Recommendations For The Responsible Restitution Of Stolen Assets (Authors: Sara Brimbeuf And Rahima Zitoumbi) p.100 | https://transparency-france.org/wp-content/uploads/2022/06/Handbook-for-asset-restitution_Transparency-France_230622.pdf

5. Returning Stolen Assets - Learning from past practice: Selected case studies (Gretta Fenner Zinkernagel and Kodjo Attisso) ICAR | <https://baselgovernance.org/publications/returning-stolen-assets-learning-past-practice>

6. Digest of Asset Recovery Cases - United Nations Office On Drugs And Crime (2015). p.100 | https://www.unodc.org/documents/corruption/Publications/2015/15-05350_Ebook.pdf

7. Achieving Development Impact With An Inclusive Asset-Return Model: The Case Of The Bota Foundation In Kazakhstan (Swathi Balasubramanian & Colby Pacheco) p.3-4 | https://www.irex.org/sites/default/files/node/resource/bota-case-study_0.pdf

8. No Dirty Money. The Swiss Experience in Returning Illicit Assets // Federal Department of Foreign Affairs (FDFA), General Secretariat GS-FDFA. Switzerland, 2018. – p.26 | https://www.eda.admin.ch/dam/eda/en/documents/aussenpolitik/voelkerrecht/edas-broschuere-no-dirty-money_EN.pdf

9. Achieving Development Impact With An Inclusive Asset-Return Model: The Case Of The Bota Foundation In Kazakhstan (Swathi Balasubramanian & Colby Pacheco) p.10 | https://www.irex.org/sites/default/files/node/resource/bota-case-study_0.pdf

